



№14 Ma`ruza
***EKOLOGIK EKSPERTIZA. EKOLOGIK EKSPERTIZANING
ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI***

REJA:

- 1. Ekologik ekspertiza haqida**
- 2. Ekologik ekspertizaning asosiy vazifalari to`g`risida**
- 3. Ekologik ekspertizaning maqsadi**
- 4. Ekologik ekspertizaning vakolatlari**
- 5. Ekologik ekspertizaning ob`ekti va sub`ekti**
- 6. Ekologik ekspertizaning xulosasi**

*Lektor: T.f.d., Ekologiya va hayot xavfsizligi xalqaro
fanlar akademiyasi a`zosi Jumayeva D.J.*

Ekologik aforizmlar



«Asrlar tutash kelgan pallada bugun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo`l qovushtirib o`z-o`zini o`limga mahkum etish bilan barobardir»

I.A.KARIMOV.

Ekologik ekspertiza

Ekologik ekspertiza – ekologik huquqiy mexanizmning tarkibiy qismi sifatida atrof tabiiy muhitning barqarorligini saqlash, tabiiy boyliklardan unumli va samarali foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan ekologik ekspertiza deganda rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza obyektini ro'yobga chiqarish mumkinligini aniqlash tushuniladi. Ekologik ekspertizaning huquqiy holati konstitutsiyaviy qoidalarda, O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonunlarda, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ekologik ekspertizani o'tkazish tartibi to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarida belgilangan



Ekologik ekspertiza

O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga asosan ekologik ekspertiza quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

mo'ljallanayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatni amalga oshirish to'g'risida qaror kabul qilinishidan oldingi bosqichlarda bunday faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;

rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyat atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, bunday faoliyatning ekologik xavflilik darajasini aniqlash;

atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning yetarliligi va asosligini aniqlash.



Ekologik ekspertiza

Ekologik ekspertizaning eng asosiy vazifasi atrof tabiiy muhit va aholining hayoti va sog`lig`iga xavfli va zararli ishlab chiqarish va xo`jalik obyektlarining ta`sirlarini oldini olish, bartaraf etish bilan bog`liq preventiv chor-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Ekologik ekspertiza jarayonida turli shakldagi quyidagi usullardan foydalangan holda ko`zda tutilgan maqsadga erishiladi:

ma'lumotlar to`plash – ekspertizadan o`tayotgan muayyan ob`yektga tegishli bo`lgan barcha axborot, ma'lumotlarni yig`ish va to`plash;




Ekologik ekspertizaning asosiy vazifalari

umumlashtirish – ob'jekt haqidagi to'plangan iqtisodiy, texnologik, ekologik, gidrologik kimyoviy va boshqa ma'lumotlarni o'z yo'nalishlari bo'yicha ma'lum tizimga keltirish; tahlil qilish – umumlashgan ma'lumotlar bankini o'z yo'nalishi va xususiyatlari bo'yicha alohida o'rganish, tasniflash;

Baholash – ekspertiza o'tkazilayotgan ob'jekt yo'nalishlari, bo'limlari, tashkil etuvchi qismlari bo'yicha xavfli va zararli darajasini aniqlash;

Xulosa berish – ekspertiza o'tkazilayotgan ob'jektning ekologik jihatdan zararli yoki zararsiz, xavfli yoki xavfsiz, ekologik qoida-talablarga mos keladi yoki ushbu qoidalarga zid ekanligi haqida yakuniy, adolatli, ob'ektiv xulosaga kelish



Ekologik ekspertizaning maqsadi

Ekologik ekspertiza keng qamrovli va muhim ahamiyatga ega bo`lgan jarayen bo`lib, uni amalga oshirish yo`nalishlari, tartibi, qo`llanilayotgan usullari, berilayotgan xulosaning mohiyatiga asosan murakkab tizimni tashkil etadi.

O`zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertiza to`g`risida” gi qonunning 4-moddasida ekologik ekspertiza quyidagi tizimi belgilangan: “Ekologik ekspertiza davlat va jamoat ekologik ekspertizasi, shuningdek, ekologik audit tarzida amalga oshiriladi”. Shuni alohida ta`kidlab o`tish kerakki, ekologik ekspertiza tizimining poydevorini davlat ekologiya ekspertizasi tashkil etadi.



Ekologik ekspertizaning vakolatlari

Davlat ekologik ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi olib boradi va quyidagi asosiy vakolatlarga ega hisoblanadi:

davlat ekologik ekspertizasini tayinlaydi va o'tkazadi;

ekologiya ekspertizasiga tegishli bo'lgan me'yoriy-texnik, huquqiy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

ekologik ekspertizasi komissiyasi, uning a'zolari va ekspertlar guruhini tuzadi;

davlat ekologiya ekspertizasi xulosalari talablarini bajarilishini nazorat qiladi va hokazo. Ekologiya qonunchilik hujjatlarida ekspertiza o'tkazilishi shart bo'lgan ob'yektlar belgilangan bo'lib, ular jumlasiga:

davlat dasturlarining, konsepsiyalarining ishlab chiqarish kuchlarini, iqtisodiy va ijtimoiy soha tarmoqlarini joylashtirish hamda rivojlantirish sxemalarining loyihalari;



Ekologik ekspertizaning vakolatlari

barcha turdagi qurilishlar uchun yer uchastkalarini ajratish materiallari;
loyiha oldi va loyiha hujjatlari; tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog`liq xo`jalik va boshqa xil faoliyatni tartibga soluvchi me'yoriy-texnik va yo`riqnoma-uslubiy hujjatlarning loyihalari; texnika, texnologiya, materiallar, mahsulotlarning yangi turlarini yaratishga doir hujjatlar;
atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar hayoti va sog`lig`iga zararli va xavfli ta'sir ko`rsatuvchi ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirayotgan barcha turdagi korxonalar; shahar sozlik hujjatlarining barcha turlari; maxsus huquqiy rejimli ob'yektlar va boshqa ob'yektlar.



Ekologik ekspertizaning ob`ekti va sub`ekti

Ushbu ob'yektlarga nisbatan davlat ekologiya ekspertizasini o`tkazish majburiy hisoblanadi va mulkchilik shakli hamda ma'muriy bo`ysunishidan qat'iy nazar hech bir ob'yeftga bu borada imtiyoz berilmaydi.

Davlat ekologik ekspertizasining subyektlari bo`lib, odatda buyurtmachi, pudratchi, iste'molchi hisoblanadi. Buyurtmachi – ekspertizani tayinlash, tashkil etish huquqiga ega bo`lgan maxsus vakolatli organdir. Pudratchi – muayyan obyektни ekspertiza qiladigan tashkilot, bular qatorida ilmiy-tadqiqot institutlari, korxonа yoki maxsus komissiya, ekspertlar guruhi bo`lishi mumkin. Iste'molchi bo`lib, ekologiya ekspertizasi hisoblangan korxonа, tashkilot, muassasa hisoblanadi.



Ekologik ekspertizaning ob`ekti va sub`ekti

Davlat ekologiya ekspertizasi jarayoni har bir ob'yektning hajmi va o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi, ya'ni:

tayinlash – ob'yektga nisbatan ekologik ekspertiza tayinlash va maxsus komissiya, ekspertlar guruhi tuzish;

ob'yekt haqida ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va baho berish bosqichi;

ob'yektning ekologik qoida-talablarga mos yoki zid ekanligi haqida xulosa tayyorlash va uni tasdiqlash;


obekt haqidagi xulosani bank muassasalariga yuborish;

davlat ekologik ekspertizasi xulosasi yuzasidan nizolarni hal qilish.



Ekologik ekspertizaning ob`ekti va sub`ekti

Davlat ekologik ekspertizasining xulosasi muhim ahamiyatga ega bo`lib, ob`yekt haqida salbiy xulosa berilgan taqdirda, bank muassasalari ushbu ob`yektni moliyalashtirmaydi va faoliyati bekor bo`lishi mumkin. Davlat ekologik ekspertizasining ekologiya ekspertisasi tizimida alohida o`rinni egallaydi va ekologik xavfsizlikni ta`minlashga xizmat qiladi. Ekologik ekspertizasining tizimida jamoatchilik ekspertisasi alohida ahamiyat kasb etadi. Jamoat ekologik ekspertisasi nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolar tomonidan amalga oshirilib, rejalashtirilayotgan, amal qilayotgan turli ob`yektlar yuzasidan o`tkazilishi mumkin.



Ekologik ekspertizaning xulosasi

Jamoat ekologik ekspertizasi davlat ekologik ekspertizasi o`tkazilganligidan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

Jamoat ekologik ekspertizasining xulosasi tavsiya ahamiyatiga ega bo`ladi, davlat hokimiyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, rivojlangan xorijiy davlatlarda jamoatchilik ekspertizasining taraqqiy etganligini, aholining keng qatlamlarining ekologik madaniyati saviyasi darajasining yuqoriligini ko`rishimiz mumkin.

Ekologik ekspertiza – muhim va murakkab jarayon bo`lib, atrof tabiiy muhitni barqarorligini saqlash, tabiatdan samarali foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy–huquqiy chora-tadbirlardan iboratdir




Ekologik ekspertizaning xulosasi

Ekspertiza turli darajalarda amalga oshiriladi: davlat ekspertizasi, ilmiy va jamoatchilik ekspertizasi, Vazirliklar ekspertizasi va boshq. Ekspertiza O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat Qo`mitasi tomonidan belgilanadi. Mazkur qo`mitada ekologik-geografik ekspertiza boshqarmasi faoliyat ko`rsatadi. Taklif qilinayotgan loyihaning mazmuni, qanday tadbirlar amalga oshirilishiga qarab, shu sohaning etakchi mutaxassisleri u bilan tanishib chiqib, uz mulohazalarini bildiradilar. Masalan, tog daryolarida yirik suv ombori qurilishi loyihasi ekspertizaga topshirilgan bo`lsa, u holda muhandis-gidrotexniklar, gidrologlar, gidrobiologlar, ekologlar, geograflar, o`rmonchilar, iqtisodchilar, xuquqshunoslardan iborat gurux tashkil qilinadi va ular loyiha bo`yicha uzlarining takliflarini tayyorlaydilar.



Mavzu yuzasidan savollar:

- 
- 1. Ekologik ekspertiza haqida nushuncha bering?**
 - 2. Ekologik ekspertizaning asosiy vazifalari to`g`risida?**
 - 3. Ekologik ekspertizaning maqsadi nima?**
 - 4. Ekologik ekspertizaning vakolatlari?**
 - 5. Ekologik ekspertizaning ob`ekti va sub`ektini izohlang?**
 - 6. Ekologik ekspertizaning xulosasini asoslab bering?**

A close-up photograph of a bouquet of light pink roses. The roses are the central focus, surrounded by small white baby's breath flowers and silver and white decorative ribbons. The background is dark and out of focus.

***E`tiboringiz uchun
tashakkur***